

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

**O'ZBEKISTON:
TIL VA MADANIYAT**

Lingvistika

2025 Vol. 3 (1)

www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari: Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib: Dilafruz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Sabohat Bozorova, Manzura Shamsiyeva, Gavhar Komilova, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Saodat Israilova, Mushtariy Xolmurodova, Sherqo'zi Qulbulov, Mahliyoxon Tuxtasinova, Ma'suma Mo'minova, Durdona Mahkamova.

Jurnal haqida ma'lumot

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“**Lingvistika**” Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi “O'zbekiston: til va madaniyat” jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. “Lingvistika” seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

“Lingvistika” seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Hamidulla Dadaboev
Deputy Editor in Chief: Zulkhumor Kholmanova
Executive secretary: Dilafruz Muhammadiyeva

Editorial Committee

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbaev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Sabohat Bozorova, Manzura Shamsieva, Gavhar Komilova, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Saodat Israilova, Mushtariy Kholmuradova, Sherquzi Kulbulov, Makhliyokhon Tuhtasinova, Ma'suma Muminova, Durдона Mahkamova.

Journal information

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors' ideas may differ from those of the editors'.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Hamidulla Dadaboyev

“Nahj ul-farodis” asari va uning XIV yuzyil turkiy adabiy til soʻz boyligi taraqqiyotida tutgan oʻrni.....8

Dilafruz Muhammadiyeva

“Boburnoma” lugʻatlarining leksikografik talqini.....18

Sherzod Atamuradov

Sifatsiz tarjima ishlarini yuzaga keltiruvchi omillar.....31

Nodira Alavutdinova, Gulhayo Tolibova

Ona tili darslarida badiiy matn tashkil etishning lingvistik asoslari....44

Nargiza Imomiddinova

Xitoy tili harbiy terminologiyasi tizimida soʻz-terminlarning derivatsion xususiyatlari.....49

Sabohat Qahhorova

“Qadam+ fe'l” komponentli birliklarning maʼno tizimi va tezaurusi....66

Qudratillo Bakirov

Qadimgi turkiy tildagi vaqt maʼnoli leksemalarning leksik-semantik tadqiqi va “Devonu lugatit turk” da ifodalanishi.....76

Charos Jumaniyozova

Belgi-xususiyat semantikasini tasniflashga antroposentrik yondashuv87

Мехрибон Шамсиддинова

Преимущества и недостатки использования инновационных технологий в обучении китайскому языку97

Dildora Suyunova

Harbiy nomlar terminologiyasida maʼnodoshlik va shakldoshlik hodisalari.....109

Shodiya Qurbonova

Nutqiy akt nazariyasi yoxud kommunikativ maqsadning ifodalanishi.....116

Umriniso Pulatova

Yoshlar slengining ijtimoiy-tabaqaviy xoslanishi.....125

Maftuna Mamarasulova	
Nominatsiya jarayonining nazariy asoslari	133
Madina Akramdjanova	
Olamning lisoniy manzarasida fitonimlarning aks etishi	142
Nargiza O'ralova	
Parsellyatsiyaning o'rganilishi: ilmiy nazariyalar va tadqiqotlar.....	149
Lola Usmonova	
Lisoniy shaxs tushunchasi va unga yondosh hodisalar tadqiqi.....	157
Muxlisa Arislanova	
She'riy matnlardagi metaforalarning lingvokognitiv asoslari: nazariy va amaliy tahlil (Erkin Vohidov she'rlari misolida).....	166
Durdona Bultakova	
O'zbek nutqiy etiketida fatik birliklarning qo'llanilishi.....	177
Ozodaxon O'ktamova	
Ingliz tilidagi raqamli muloqotda xushmuomalalik strategiyalari va ularning lingvistik xususiyatlari.....	183
Niluzar Axmedova	
O'zbek va ingliz tillarida shaxs ruhiy holatini ifodalovchi leksik birliklarning lisoniy qiymatini aniqlashda kontekst va madaniyatning roli.....	193

Content

Linguistics

Hamidulla Dadaboev

“Nahj al-Farâḍis” and Its Role in the Development of the XIV-Century
Turkic Literary Language Vocabulary.....8

Dilafroz Muhammadijeva

The lexicographic interpretation of the “Boburnama” dictionaries.....18

Sherzod Atamuradov

Factors that cause poor quality translation work.....31

Nodira Alavutdinova, Gulhayo Tolibova

Linguistic Foundations of Organizing Literary Texts in Mother Tongue
Lessons44

Nargiza Imomiddinova

Derivational features of word-terms in the system of military
terminology of the Chinese language49

Sabohat Qahhorova

“Qadam + fe’l” component unit’s semantic system and thesaurus.....66

Qudratillo Bakirov

Lexical-semantic study of time-meaning lexemes in the Old Turkic
language and expression in «Devanu Lugatit Turk».....76

Charos Jumaniyozova

An Anthropocentric Approach to the classification of Feature-attribute
semantics87

Mekhribon Shamsiddinova

Advantages and disadvantages of using innovative technologies in
teaching the chinese languages97

Dildora Suyunova

Phenomena of similarity in meaning and form in the terminology of
military names109

Shodiya Qurbonova

Speech act theory or expression of communicative purpose.....116

Umriniso Pulatova

The socio-stratification of youth slang.....125

Maftuna Mamarasulova

Theoretical foundations of the nomination process.....133

Madina Akramdjanova

The reflection of phytonyms in the linguistic picture of the world ...142

Nargiza O'ralova

The Study of Parcellation: Scientific Theories and Research.....149

Lola Usmonova

Study of the concept of linguistic personality and related phenomena.....157

Muxlisa Arislanova

Linguocognitive foundations of metaphors in poetic texts: theoretical and practical analysis (on the example of the poems of Erkin Vakhidov).....166

Durdona Bultakova

The use of phatic units in the speech etiquette of uzbek language.....177

Ozodaxon O'ktamova

Politeness Strategies and Their Linguistic Features in English Digital Communication183

Niluzar Akhmedova

The Role of Context and Culture in Defining the Linguistic Value of Lexical Units Expressing Human Psychological States in Uzbek and English193

Lisoniy shaxs tushunchasi va unga yondosh hodisalar tadqiqi

Lola USMONOVA¹

Annotatsiya

Maqolada lisoniy shaxs tushunchasi va u bilan bevosita bog'liq bo'lgan yondosh hodisalar – *kommunikativ shaxs, nutqiy portret, etnosemantik shaxs, diskursiv shaxs, idiolekt, idiosstil* kabi tushunchalar nazariy jihatdan tahlil qilinadi hamda ularning tilshunoslikdagi o'рни aniqlanadi. Tadqiqot lisoniy shaxsning nutqiy faoliyatda qanday til birliklari orqali namoyon bo'lishini aniqlashga, shuningdek, yondosh hodisalar yordamida shaxsiy, ijtimoiy va madaniy ko'rsatkichlarning til tizimidagi ifodasini o'rganishga qaratilgan. Mazkur yondashuvlar lisoniy shaxsni yanada chuqurroq tahlil qilish, uning til vositalaridagi ifodaviy imkoniyatlarini ochib berishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Maqolada ushbu hodisalar o'zbek tili materiali asosida tahlil etiladi, shaxsning tilga oid xususiyatlari nutqiy kontekstda qanday ifodalanishi ochib beriladi. Tadqiqot lisoniy shaxs tushunchasining murakkab, ko'p qatlamli tuzilmasini yoritishda yangi nazariy asoslarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: *lisoniy shaxs, idiolekt, idiosstil, kommunikativ shaxs, etnosemantik shaxs, diskursiv shaxs, nutqiy portret.*

Zamonaviy tilshunoslikda inson va til o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Til nafaqat ijtimoiy hodisa, balki individual ong, madaniyat va tafakkur bilan uzviy bog'liq bo'lgan kommunikativ tizim sifatida qaraladi. Til inson faoliyatining eng murakkab, ko'p qirrali, ijtimoiy hamda madaniy jihatlariga ega bo'lgan hodisalaridan biridir. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikda tilni faqat formal tizim sifatida emas, balki inson faoliyatining, tafakkurining, shaxsiyatining ifodasi sifatida talqin qilishga qaratilgan yangi yo'nalishlar shakllana boshladi. Bu davrda tilshunoslikda inson omili yetakchi o'ringa chiqdi, ayniqsa, tilning shaxs bilan aloqadorlik jihatlari doirasida olib borilayotgan izlanishlar alohida dolzarb mavzuga aylandi. Xususan, antroposentrik paradigma asosida shakllangan yondashuvlar tilni

¹ *Usmonova Lola Komil qizi* – O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti (PhD).

e-pochta: lola_usmonova_94@mail.ru

Iqtibos uchun: Usmonova L. Lisoniy shaxs tushunchasi va unga yondosh hodisalar tadqiqi. *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2025-3: 157-165.

egasiz, faqat struktura sifatida emas, balki inson – lisoniy shaxs orqali faoliyat ko'rsatuvchi vosita sifatida o'rganishni taqozo etdi. Buning natijasida antroposentrik tilshunoslikda lisoniy shaxs tushunchasi markaziy ilmiy kategoriya sifatida yuzaga keldi.

Tilshunoslik ilmida lisoniy shaxs deganda, nafaqat tilni egallagan, undan foydalana oladigan shaxs, balki til orqali o'z shaxsiyati, ijtimoiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va psixologik xususiyatlarini til orqali namoyon eta oladigan nutq egasi tushuniladi. Lisoniy shaxs haqidagi klassik yondashuvlardan tortib zamonaviy antroposentrik yondashuvlargacha bo'lgan ilmiy qarashlar xilma-xilligi tufayli uning nutq faoliyati ko'p qirrali tahlilni talab qiladi.

Lisoniy shaxs haqida so'z borganda, uning o'ziga xosliklarini chuqurroq ochib beruvchi yondosh hodisalarni ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Chunki har bir lisoniy shaxs til tizimi ichida, u orqali va u bilan birgalikda shakllanadi. Bunday yondosh hodisalar qatoriga *kommunikativ shaxs, nutqiy portret, etnosemantik shaxs, diskursiv shaxs, idiolekt va idiostil* kabi lingvistik tushunchalarni kiritish mumkin. Ushbu hodisalar shaxsning nutq faoliyatini har tomonlama yoritishga, uning tildagi obrazini tiklashga, uslubiy va semantik tanlovlarini anglashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada aynan mana shu yondosh hodisalar asosida lisoniy shaxs tushunchasi keng qamrovli lingvistik tahlil obyekti sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – lisoniy shaxs va unga yondosh hodisalarning o'zbek tilidagi ifodaviylik xususiyatlarini aniqlash, ularning lingvistik va madaniy asoslarini ochib berishdan iborat.

Asosiy qism

Lisoniy shaxs tushunchasi tilshunoslikda inson va til munosabatining markaziy nuqtasida turuvchi muhim nazariy kategoriya sifatida shakllangan. Mazkur tushunchaning shakllanishi tarixan bir necha ilmiy bosqichlardan o'tgan bo'lib, har bir bosqichda til va shaxs o'rtasidagi munosabatga turlicha yondashuvlar ilgari surilgan. Dastlab, XIX–XX asr boshlaridagi strukturalizm va formalizm oqimlarida til asosiy e'tiborga olingan bo'lib, shaxs til tizimining passiv ishtirokchisi sifatida qaralgan. F. de Sossyur tilni ijtimoiy hodisa sifatida baholagan bo'lsa-da, nutq va til o'rtasidagi tafovutda shaxsning subyektiv roli kam e'tiborga olingan. Shuningdek, amerikalik strukturalistlar (L.Bloomfield, E.Sapir) tilni sistemali birliklar to'plami sifatida o'rgangan, ammo til egasi – insonning individual, psixologik va madaniy jihatlari chuqur tahlil qilinmagan.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa, tilshunoslikda

inson faktori markaziy mavzuga aylandi. Ayniqsa, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika va pragmatika kabi yo'nalishlarda lisoniy shaxs atroficha o'rganila boshlandi. Bu davrdagi tilshunoslikda lisoniy shaxs tadqiqiga bag'ishlangan ishlar orasida Y.N.Karaulovning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Y.N. Karaulovning lisoniy shaxs tadqiqiga bag'ishlangan asari [Karaulov Ю.Н, 1987] ushbu davrdagi tadqiqotlar orasida muhim manba hisoblanadi. Tilshunos olim lisoniy shaxs tushunchasini tavsiflar ekan, lisoniy shaxs sifatida har qanday til egasi bo'la olishini ta'kidlaydi hamda uni "lisoniy shaxs – bu umuman shaxs tushunchasining chuqurlashishi, rivojlanishi, qo'shimcha mazmun bilan to'yinganligi", –deya to'ldiradi [Karaulov Ю.Н, 2010:264]. U lisoniy shaxsni uch bosqichli model asosida tavsiflaydi:

- Verbal-zahira – til birliklarini bilish va tushunish darajasi;
- Verbal faollik – bu bilimlarni nutq faoliyatida qo'llay olish qobiliyati;
- Motivatsion-dunyoni aks ettirish darajasi – shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlarini, ideologik pozitsiyasi va ularni nutqda ifodalash uslubi.

Shuningdek, V.I.Karasik lisoniy shaxsni madaniy, kommunikativ va diskursiv jihatdan o'rgangan holda, uni nutqiy faoliyatning madaniy moduli sifatida izohlaydi. Uning fikricha, til – bu madaniyatni ifodalovchi va uzatuvchi asosiy vosita bo'lib, har bir lisoniy shaxs esa shu madaniyatni tashuvchidir.

Bugungi kundagi zamonaviy yondashuvda esa, lisoniy shaxs tushunchasi kompleks, ko'p qatlamli va kontekstual xususiyatga ega deb qaralmoqda. Bunda til egasining psixologik holati, ijtimoiy mavqei, kommunikativ ehtiyojlari, madaniy qarashlari, diskursdagi pozitsiyasi kabi omillar muhim rol o'ynaydi. Xususan, S.T.Vorkachev lisoniy shaxs haqidagi mavjud ta'riflarni umumlashtirgan holda uni "Til egasi, nutqiy qobiliyatga ega bo'lgan, aniqrog'i nutq tuzish va idrok eta oladigan shaxs; tildan aloqa vositasi sifatida foydalanadigan kommunikant; o'z tilining lug'at boyligini egallagan, millatning milliy-ma'naviy qadriyatlarini, xulq-atvorining prototipi" deya tavsiflaydi [Воркачев С.Г, 2001:64-72]. S.T.Vorkachev lisoniy shaxs va konseptni lingvokulturologiyaning asosiy kategoriyalari deb hisoblaydi.

Lisoniy shaxs muammosiga o'zbek tilshunosligida dastlab D.Lutfullayeva, D.Xudoyberganovlar e'tibor qaratgan. Ularning fikricha, "Tilni inson omili bilan bog'liq holda o'rganish muammosiga

jiddiy e'tibor qaratilayotgan vaqtda tilda lisoniy shaxs muammosini tadqiq qilish dolzarb vazifalardan biridir. Xususan, olamning lisoniy tasviri tahlilida lisoniy shaxs muammosini o'rganish muhim ahamiyatga ega" [Лутфуллаева Д.; Худойберганова Д, 2017:35-41]. Darhaqiqat, lisoniy shaxs konseptini o'rganish, nutq va uning yaratuvchisi haqidagi tadqiqotlar zamonaviy tilshunoslikda yangi bilimlar, yangi yo'nalishlarning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Lisoniy shaxs tushunchasi til sohibining ongi, dunyoqarashi bilan uning tili o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Lisoniy shaxs haqida izlanishlar olib borgan tilshunoslardan M.Umurzoqova ham har qanday shaxs o'zini obyektiv faoliyat orqaligina emas, balki til va nutqsiz tasavvur qilib bo'lmaydigan muloqot orqali namoyon qilishini aytadi hamda insonning nutqi uning ichki dunyosini aks ettirishi va uning shaxsiyati haqida tasavvur hosil qilishda ko'maklashishini uqtiradi [Umurzoqova M, 2023].

Lisoniy shaxsning til tizimidagi o'rni va faoliyati uni o'rab turgan qator yondosh lingvistik hodisalar orqali to'laqonli talqin etiladi. Bu hodisalar shaxsning nutqiy, madaniy va ijtimoiy jihatlarini aniqlashda vosita vazifasini bajaradi. Quyida shunday asosiy yondosh tushunchalarning har biri lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Dastlab tilshunos olim V.P.Neroznak tadqiqotlariga qaraydigan bo'lsak, olim idiolekt va polilekt tushunchalarini ham lisoniy shaxs konsepti ichida tadqiq etganini ko'ramiz. V.P. Neroznak lisoniy shaxs tushunchasini o'rganib, uni dastlab ikki turga – idiolekt va polilekt shaxsga ajratadi. Uning fikricha, **idiolekt** – bu statik holatdagi nutq xususiyatlari bilan tavsiflangan sinxron individuallanishlar ketma-ketligi bo'lsa, polilekt til taraqqiyoti nuqtayi nazaridan uzoq vaqt davom etgan lingvistik holatlarni (individuallarni) diaxron tarzda namoyon etadigan dinamik tizim sifatida namoyon bo'ladi [Нерознак В.П, 1996:112-116].

Keyingi izlanishlar natijasida tilshunoslar idiolektni har bir shaxsga xos, individual til tizimi sifatida baholashadi. Bizningcha, har bir insonning tilni o'zicha tushunishi, so'z tanlovi, gap qurilishi va uslubiy afzalliklari idiolektni belgilaydi. Idiolekt quyidagilarga bog'liq ravishda shakllanadi:

- Ta'lim darajasi;
- Ijtimoiy-madaniy tajriba;
- Emotsional reaksiya turlari;
- Shaxsiy til xotirasi.

Mashhur yozuvchilarning yoki notiqnlarning idiolektlari ularning uslubini tanib olish imkonini beradi. Masalan, o'zbek

yozuvchisi Abdulla Qahhor idiolektida qisqa, sodda va chuqur ma'no yuklangan gaplar ustuvor bo'lsa, Erkin Vohidovda obrazlilik va poetiklik ko'zga tashlanadi.

Umuman olganda, idiolekt tushunchasi muallifning shaxsiy til tizimini anglatib, bunda muallifga xos bo'lgan so'z boyligi, grammatik qurilmalar, uslubiy vositalar, ritm, metafora va boshqa til unsurlari muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir yozma matn muallifning ijtimoiy, madaniy, falsafiy va psixologik kontekstlari bilan bog'liq holda vujudga keladi [Xolova M.B, 2025:287-292]. Akademik V.V. Vinogradov idiolektni "aniq bir shaxsga oid bo'lgan nutqiy birliklarning shakliy va uslubiy xususiyatlari majmuasi bo'lib, u o'sha shaxs tomonidan yaratilgan matnlar orqali til tizimining individual namoyonidir" deb ta'riflaydi [Vinogradov V, 1998:144-145]. Shunga o'xshash yondashuv M.A. Fedotova tadqiqotlarida ham ilgari suriladi. U idiolektni "aniq bir shaxsning nutqiga xos bo'lgan shakliy va uslubiy xususiyatlarning yig'indisi" sifatida tavsiflaydi [Fedotova M.A, 2013:220-225]. M.M.Mixaylov esa idiolektni "shaxsiy kognitiv va kommunikativ tajriba orqali sotsial me'yorlar asosida shakllangan individual til tizimi" deb talqin qiladi [Mikhaylov M.M, 1966:85].

Idiostil – bu idiolekt asosida shakllangan va shaxsning barqaror, uslubiy belgilari bilan ajralib turuvchi nutq uslubidir. Ayniqsa, adabiy tilshunoslikda idiostil muhim o'rin tutadi. Idiostilni aniqlovchi belgilarga quyidagilar kiradi:

- Sevimli leksik birliklar;
- Sintaktik tuzilma afzalliklari;
- Takroriy stilistik vositalar (metafora, ironiyalar, parallelizmlar).

Idiostil muallif yoki shaxsning lingvistik identifikatsiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Idiostilni muallifning shaxsiy madaniy tajribasi, estetik dunyoqarashi va psixolingvistik ehtiyojlari asosida shakllanadigan, mavjud yozuv andozalaridan mustaqil, individual badiiy ifoda uslubi desak to'g'ri bo'ladi. Bu tushuncha muallifning matn hosil qilish faoliyatini, ya'ni badiiy olamini shakllantirishdagi til vositalaridan o'ziga xos tarzda foydalanishini o'z ichiga oladi. Babich fikricha, idiostil – bu shaxsga xos nutqiy-kognitiv mexanizmlar va assotsiativ-semantik maydonlardan tashkil topgan individual tizim bo'lib, u matn maydonini shakllantiradi [Babich V.I, 2017:109-116]. D.Crystal esa, idiostilni lingvistik shaxsning kommunikativ va kognitiv maydoni sifatida talqin qilib, uni san'atkorona nutq hosil qilishga xizmat qiluvchi vosita sifatida

ko'radi hamda bu orqali tarixiy bosqichga xos bo'lgan badiiy matn modelini yaratish mumkinligini ta'kidlaydi [Crystal D, 2016:256].

Kommunikativ shaxs – bu til egasining muloqotdagi faoliyatga qaratilgan strategik va pragmatik xatti-harakatlarini ifodalovchi lingvistik modeldir. Tilshunoslikda bu tushuncha shaxsning kommunikativ kompetensiyasi, nutqiy konvensiyalarni anglash qobiliyati va kontekstual javob berish salohiyatiga bog'liq ravishda aniqlanadi. Kommunikativ shaxs tahlilida quyidagilar muhim:

- Kommunikatsion strategiyalar (qo'llanilayotgan uslub, savol-javoblar, ironiyalar);
- Interaktiv pozitsiyalar (tinglovchi bilan tenglik, ustunlik yoki bo'ysunish);
- Konversatsion mahorat (nutqni boshqarish, mavzu almashinuvi, pauzalar).

Empirik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida kommunikativ shaxs ko'pincha madaniy stereotiplar, axloqiy tamoyillar va hurmat-an'analar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Etnosemantik shaxs – bu shaxsning til orqali namoyon bo'ladigan madaniy, milliy va qadriyatga oid belgilarini ifodalovchi lingvistik obrazdir. Har bir til o'ziga xos semantik ustuvorliklarga ega: ya'ni, muayyan tushunchalarning boshqa tildagi ekvivalentlardan farq qiladigan semantik konnotatsiyasi mavjud. Masalan, o'zbek tilida “or-nomus”, “odoblilik”, “mehnatsevarlik” kabi milliy qadriyatlar tildagi aks ettirish shakllarini belgilaydi. Bundan tashqari so'zlarning semantik og'irligi (masalan, “vijdon”, “tavoze”, “sabr”) etnosemantik shaxs portretini yaratadi. Bu portret orqali tilshunos shaxsning etno-kognitiv xaritasini tasvirlashga erisha oladi.

Diskursiv shaxs – bu shaxsning ijtimoiy diskursdagi pozitsiyasi, ishtirok uslubi va o'zini ifodalash strategiyasini bildiradi. Bu tushuncha diskurs tahlilida keng qo'llaniladi va shaxsni nutqdagi kontekstual pozitsiyalari asosida baholashga imkon beradi. Diskursiv shaxs *avtoritar* (hukmron nutq uslubi), *dialogik* (ochiq muloqotga asoslangan) yoki *narrativ* (hikoya asosida ifodalanuvchi) shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, siyosiy nutqda shaxs o'zini ijtimoiy guruh yetakchisi sifatida diskurs orqali namoyon etadi. Bu esa uning diskursiv shaxs portretini yaratadi.

Nutqiy portret – bu til egasining nutqda aks etgan leksik, grammatik, fonetik va stilistik belgilar yig'indisidir. Mazkur portret orqali shaxsning yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqei, bilim doirasi va hatto kasbiga oid ma'lumotlarni aniqlash mumkin. Nutqiy portretlar

statik (doimiy belgilar) va dinamik (vaziyatga qarab o'zgaruvchan belgilar) ko'inishda bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida kekxa kishilarning nutqida maqollar, nasihatlar, yoshlar tilida esa so'z o'yinlari, internet slenglari ko'p uchraydi. Bu esa nutqiy portretni shakllantiruvchi belgilar sirasiga kiradi.

Xulosa

Maqolada lisoniy shaxsga oid tadqiqotlar ko'plab yondosh tushunchalar bilan bog'liq holda olib borilayotgani misollar vositasida ko'rib chiqildi. Jumladan, *kommunikativ shaxs* – shaxsning mulqotdagi strategik xatti-harakatlarini ifodalovchi til modeli. *Nutqiy portret* – shaxsning nutqdagi o'ziga xos leksik, grammatik va stilistik xususiyatlarini ochib beruvchi model. *Etnosemantik shaxs* – milliy madaniyat, qadriyat va semantik ustuvorliklar bilan bog'liq til obrazi. *Diskursiv shaxs* – shaxsning ijtimoiy-madaniy kontekstdagi diskursda ishtirok shakllarini ko'rsatadi. *Idiolekt* va *idiostil* esa shaxsning individual til tizimi va uslubiy xususiyatlarini ifodalovchi lingvistik hodisalardir.

Yuqorida tahlil qilingan yondosh hodisalar lisoniy shaxsning turli qirralarini ochib berishda muhim metodologik vosita bo'lib xizmat qiladi. Har bir hodisa shaxsning tilga oid biror qatlamini (madaniy, kommunikativ, stilistik, semantik, ijtimoiy) yoritadi. Bu esa lisoniy shaxs tushunchasini oddiy til egasi emas, balki ko'p qatlamli, dinamik va kontekstga bog'liq til fenomeni sifatida talqin qilishga imkon beradi. Misollar shuni ko'rsatadiki, lisoniy shaxsga yondosh hodisalar o'zbek tilidagi real nutqiy namunalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Har bir yondosh tushuncha shaxs tiliga xos ma'lumotni konkret kontekstda ochib beradi. Bu tahlillar asosida lisoniy shaxsni ko'p darajali tahlil obyekti sifatida qarash metodologik jihatdan samarali ekanligi tasdiqlanadi.

Adabiyotlar

- Караулов Ю.Н. 1987. Русский язык и языковая личность. – Наука.
- Воркачев С.Г. 2001. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – №1. –64-72 с.
- Лутфуллаева Д., Худойберганава Д. 2017. Тилшуносликда лисоний шахс муаммоси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. 6-сон. – 35-41 б.
- Umurzoqova M. 2023. Tilshunoslikda lisoniy shaxs talqini. –Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10439694>
- Нерознак В.П. 1996. Лингвистическая персонология : к определению статуса дисциплины // Язык. Поэтика. Перевод. Сб. науч. тр. – М.: Московский государственный лингвистический

университет.

- Xolova M.B. 2025. Idiosil, idiolekt va lingvistik shaxs tushunchalari // Ilm-fan axborotnomasi, science bulletin. Volume 8, issue1, Iyun.
- Vinogradov V.V. 1998. Idiolect. In Yu.N. Karaulov (Ed.), *Russkiy yazik. Ensiklopediya* (2nd ed., pp. 144–145). Moscow: Bolshaya Rossiyskaya ensiklopediya. Drofa.– 144 p.
- Fedotova M.A. K 2013. voprosu o razgranichenii ponyatiy idiosil'i idiolekt yazykovoy lichnosti. *Zapiski romano-germanskoj filologii.* –№1.
- Mikhaylov M.M. 1966. *Kultura russkoj rechi.* Chuvashskoye knizhnoe izdatel'stvo.
- Babich, V.I. 2017. Linguostylistic means of expressing the lyrical self at the lexical and grammatical level in a poetic text (based on the materials of idiodiscourses by R. Frost and K. Sandberg) // *Scientific Bulletin of Kherson State University.* –№3.
- Crystal D. 2016. *The Gift of the Gab: How Eloquence Works.* Connecticut. – Yale University Press, –256 p.

Study of the concept of linguistic personality and related phenomena

Lola USMONOVA¹

Annotation

